

## TOSHKENT VA FARG‘ONA MINTAQASI KOSTYUMINING O‘ZIGA XOS ZUSUSIYATLARI VA MATOLARINI TAXLIYLI

**K.R.Fuzailova**

*TTYESI, —Kostyum dizayni kafedrasi katta o‘qtuvchisi*

Toshkent va Farg‘ona mintaqasi kostyumining oziga xos xususiyatlari, bichim taxlili, tabiy milliy matolari xususiyatlari, bosh kiyimlari, kashtalarini kiyimdagи mintaqaviy va ijtimoiy belgilarini o‘rganilgan va taxlil qilingan.

В статье изучены особенности костюмов Ташкентской и Ферганской областей, проанализированы форма, ткани, а также региональные и социальные особенности головных уборов, вышивки.

The article examines the features of the costumes of the Tashkent and Ferghana regions, analyzes the form, fabrics, as well as regional and social characteristics of headdresses, embroidery.

Ozbekistonning unumdar va xushmanzara hududlaridan biri bo‘lgan Farg‘ona vodiysi qadimdan Parkan nomi bilan mashhurdir. Hattoki, Xitoy manbalarida Davan deb yuritilgan bu o‘lka, o‘zi ning samoviy otlari va badiiy to qimachiligi bilan olis yurtlarda ham beqiyos nom qozongan. Farg‘ona vodiysi O\_rta Osiyo tarixi va madaniyatida katta rol o\_ynagan desa mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘zining betakror iqlimi, toza havosi, suvining serobligi, atrofi osmono‘par tog\_lar bilan o\_ralgani, o\_troq turmush tarzi va ular madaniyatining shakllanishiga, shaharlar, hunarmandchilik va ipakchilikning rivojlanishiga zamin yaratgan.

Atalishi turlicha bo‘lsada, ammo bichimi bir-biriga o‘shash bo‘lgan ko\_ynak (ko\_ylak), yaxtak (yaktak), shim (lozim), turli choponlar, bosh ki\_yimlari, zargarlik bezaklari va po\_y\_abzal kabi liboslar to‘plamiga kiruvchi buyumlar Toshkent va Farg‘ona vodiysi aholisining an‘anaviy liboslari turiga kiradi (1-rasm).



**1- rasm. Farg‘ona vodiysi va Toshkent erkakkali liboslari.**

Ammo Farg‘ona vodiysi liboslari ranglari o‘zining oddiy ligi bilan boshqa hudud liboslaridan tubdan farq qilgan. Asosan, Farg‘ona vodiysi liboslari ko\_k-yashil ranglarda bo‘lgan. Toshkent liboslari ham Farg‘ona vodiysi kiyimlari kabi oddiy ranglarda bo‘lib, o‘xshash jihatlari ko‘p edi.

Quroqchilik Farg‘ona viloyatining So‘x tumanida xalq turmush tarzining ajralmas qismi hisoblanadi. Chunki quroqdan tikilgan buyumlar inson tug‘ilganidan to hayotining so‘nggi manzilgacha bo‘lgan davrda barcha an‘anaviy milliy marosimlarda ishlataladi. Masalan, go‘dak dunyoga kelganining oltinchi kunida serfarzand nuroniy otaxon va onaxonlarning uylaridan 15 tadan ortiq mato qiyqimlari yig‘ib olinib, — farzandimiz ham shularga o‘xshab uvali- juvali bo‘lsin uzoq umr ko‘rsin», deya niyat qilib, ushbu parchalardan tikib qavilgan to‘ncha chaqaloqqa chillasi chiqquncha kiydiriladi.

Nikoh marosimlarida esa ikki yosh baxtli yashashlari ularga ko‘z tegmasligi, yomon ko‘zdan saqlashi uchun hamda serfarzand bo‘lishlarini tilab go‘shanganing ikki tomoniga

—qatlamaq quroq, kelin-kuyov uyining oldiga —poyandoz quroq to‘shaladi. Shuningdek, kelin-kuyov oldiga —quroq dasturxon ham solinib, ikki yoshning noni va nasibasi butun bo‘lishiga tilak bildiriladi. Kelin-kuyovlarning ko‘rpa yostiqlari jildlariga rang-barang quroqning qo‘llanilishiga sabab, kelgusida ularning o‘g‘il-qiz farzandlari aralash tug‘ilsin, degan ramziy ma‘no yotadi. Quroqlarning ramziy ma‘noda oq-qora, qizil-ko‘k va boshqa ranglar bilan qorishig‘i yoshlar bir-birlari bilan chatishib ketishi totuv yashashlariga ishoradir. Quroqdan, shuningdek, dafn marosimlarida —balish quroq tikiladi.

Jizzaxda —Turna, —Ko‘z, —Ulama, —Qatlama, —Tirna, —Quduq, —Shaxmat kabi quroq texnikasida beshik uchun asboblar, poyandoz, quroq chimildiq, quroq yostiqlar kabilar tikiladi. Beshik uchun tikilayotgan quroq buyumlarining asl ma‘nosи farzandlar sog‘- salomat bo‘lib, yani har bir oilaga qiz yoki o‘g‘il farzandlar nasib etsin va ularga ko‘z tegmasin, deya niyat qilinadi. Nikoh to‘ylarida, kelinga bir dona poyandoz, quroq chimildiq, bir dona quroq ko‘rpa, 10 dona quroq yostiq, quroq bolish beriladi. Yana bir an‘anaviy udumga ko‘ra, kuyovning onasi niyat qilib 100 dan ortiq mato qiyqimlaridan to‘shak tikadi. To‘shakning bir chekkasiga tumorcha va to‘shakning boshqa burchagiga —qo‘yning oshig‘il maxfiy ravishda tikiladi. Maqsad, ikki yoshning baxti mangu bo‘lib, ular butun umr —oshiq-moshiq bo‘lishlari baxtlari bir umrlik butun bo‘lishi nazarda tutiladi. Sunnat to‘ylarida esa, to‘y bolalarga quroqdan bir juft yostiq, to‘shak hamda yasatilayotgan toy uchun xurjun, bo‘yintumorlar tikiladi.

Demak, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida milliy kiyimlarimiz ham davr talablariga mos ravishda transformatsiyalashib, mukammal shakl kasb etib boraverган. Milliy kiyimlarimizning bugungi ko‘rinishga ega bo‘lishida arxaik ko‘rinishga ega bo‘lgan ajdodlarimizning kiyimlari moddiy asos sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Insoniyat taraqqiyotida ijtimoiy-tabiiy zaruriyat sifatida kiyimlar ajdodlarimiz tomonidan ixtiro etilgan bo‘lsa, har bir ijtimoiy-tarixiy bosqichda ular sayqallanib, mukammal shaklga ega bo‘lib borgan.

O‘zbekistonning boshqa hududlariga nisbatan, Farg‘ona vodiysi va Toshkentda ayollar liboslarida islom dinida qayd etilgan ko‘rsatma va talablarga ko‘proq rioya qilinganligini ko‘rish mumkin. Bu esa o‘z navbatida, ma‘naviy va odob-axloq normalari bilan uzviy bog liq bo\_igan. Islom dinida qayd etilgan odob-ahloq normalari asosida shakllangan kiyimlar orqali ayollar o\_zlarida sadoqat, itoatkorlik, bardoshlilik va uyatchanlik kabi sifatlarni shakl-lantirishi shart va muhim bo\_igan. Ushbu sifatlarni esa, kiyim sipoligida, bejirimligida o‘z navbatida, mato ranglarida hamda berilgan bezaklarning oddiyligida ko‘rish mumkin.

Qo‘qon ayollarining kiyinish uslubi bo‘yicha F.Nazarov quyidagi ma‘lumotlarni keltirgan:

—Ayollarini faqat bozorlarda, ustiga yopinchiq tashlab olgan holatda ko\_rish mumkin. Ular juda bashang kiyinadi. Ayollar paranji yopinib oladi, boshiga salsa o\_raydi va yuziga to\_r tashlab oladi. Ushbu to\_r paranjiga qo\_shib tikiladi [1].



## 2- rasm. Farg’ona vodiysi va Toshkent ayollari liboslari.

Gerodotning ma'lumot berishicha, barcha qabiladagi odamlar, hattoki, erkaklar ham, kiyimsiz yurishni uyat deb hisoblashgan. Uyalish axloqiy - estetik kategoriya sifatida jamiyatning ilk bosqichlaridan shakllana boshlagan. Xususan, erkak va ayol, yosh va qariyalar tanalarini uyatli joylarini berkitishgan[2].

Kishilik jamiyatining har bir ijtimoiy-tarixiy bosqichida kiyinish ham o‘ziga xos mazmun va mohiyatga ega bo‘lib, davrning o‘ziga mos xususiyatlarini aks ettirgan. Ayni vaqtida tarixiy davrning mavjud imkoniyat va resurslari, ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish darajasi kiyinish madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini belgilagan.

Toshkent va Farg’ona vodiysi ayollar liboslarida ko\_zga tashlanadigan, o‘ziga jalb qiluvchi ortiqcha narsa bo\_lmasligi talab etilgan. Shunday bo‘lsada, ushbu hudud ayollarining abrband naqshli matolardan, zargarlik buyumlaridan foydalanishlari, bejirim paranjilari barchada katta taassurot qoldirgani sir emas. Odatda, yosh qiz va juvonlarning bir xil tusli, qizil yoki pushti rang, gulli naqsh so\_lingan ko\_ylaklarni kiyishi urf bo‘lgan.

O\_rta yoshli ayollar ko\_ylagi esa nisbatan odmiroq bo‘lib, asosan ko\_k, moviy va kulrang matolardan tikilgan. Yoz mavsumida barcha yoshdagi ayollar, asosan oq rangdagi matodan tikilgan liboslarni ki\_yishni afzal bilishgan. Qariyalar uchun oq libos kiyish majburiy hisoblangan. Qora, to\_q ko\_k va yashil rangli matolardan tikilgan liboslarni motam marosimlarida kiyilgan. Qadimda Sharq davlatlarida oq rang yorug‘lik, baxt, qora esa zulmat rangi hisoblangan. Professor I.Jabborovning fikriga ko‘ra: — Eng yaqin kishisi vafot etganda ayollar ko‘k yoki qora matodan maxsus kiyim kiyganlar. O‘zbeklarning motam kiyimlari assosan, ayollarga mo‘ljallangan bo‘lib, erkaklarda motam kiyimlari umuman bo‘lmagan[53]. Olimning bu so‘zlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, erkak kishilarda ham motam kiyimlari mavjud bo‘lgan. Masalan, Toshkentda aza bo‘lgan xonadonda erkaklar uch kungacha ustlariga to‘n, belbog‘ va boshlariga do‘ppi kiygan holda ko‘chada turadilar. Ba’zi hududlarda kishi vafot etgandan so‘ng bunday kiyimlar uch kun davomida tikilib, to‘rtinchi kun qo‘ni-qo‘shni va yaqin qarindoshlar ishtirokida maxsus marosim asosida kiyilib, bu

marosim —ko‘k kiydil deb atalgan. Ushbu sohada tadqiqot olib borgan olimlarimizning ta‘kidlashlaricha, bunday kiyimlarni etak va yeng qismi irim qilinib qaytarilmasdan tikilgan hamda ular bir yil davomida, —oq kiydil marosimigacha kiyilgan. —Oq kiydil marosimida ko‘k ko‘ylak echilib, odatiy libos kiyiladi. Albatta, bunday marosimda yoshi ulug‘ onaxonlarimiz Allohdan ushbu oilada boshqa o‘lim bo‘lmasligini tilab, oilaning qolgan a’zolarini duo qilganlar. Ushbu jihatga mentalitetimizdagi asosiy qirralar sifatida bugungi kunda ham amal qilinayotganligini kuzatish mumkin. Zero, yaqin qarindoshlar o‘tgach, ular ruhini e’zozlash, haqqiga duo qilib turish milliy qadriyatlarimiz safidagi muhim jihatlardir[3]. Odatda, ayollar libosi o‘ziga xos jihatlari bilan farqlanib, yuqori qismi tanaga yopishib turgan, etak qismiga esa pastga qarab kenga—yib borgan.

XIX asrda Farg\_ona va Toshkent ayollari turli xil pardoz vositalaridan foydalanishgan. Ular yuzlariga pushti-qizil, oq yog\_upadan, qosh va ko‘zlariga o\_smadan, hushbo‘y xid taralishi uchun mushkanbardan va ayolga chiroy bag‘ishlovchi gajakdan foydalanishgan. Tashqi go\_—zallikka g\_amxo\_rlik qilish diniy asoslarda ham keltirilgan. Shariatda ham turmushga chiqqan ayol eriga chiroyli ko\_ri\_nishi uchun o‘ziga zeb berishi, tashqi ko\_rinishiga e‘tibor qaratishi talab etiladi. —Onangni otingga bepardoz ko‘rsatmal degan iboralarni paydo bo‘lishi ham bejiz emas.

Kiyinish madaniyati funktsiyalaridan biri ayollar kiyimining transformatsiyasiga oiddir. Tadqiqotimiz ko‘rsatishicha, hamda keksa onaxonlarimiz bilan o‘zaro muloqotlardan shu narsa ma'lumki, ilgari yosh ayollarimiz birinchi farzandini tuqqunga qadar ko‘ylagining yoqa qismi ko‘tarilgan holda, uch qismi uchburchak shaklidagi tishchalar bilan parpara qilib tikilgan.

Ayollar liboslari tarkibiga huddi boshqa hudud liboslari singari, ko\_ylak, lozim, ustki kiyim sifatida – mursak, to\_n, ko\_chaga kiyiladigan ki\_yim sirasiga – paranji, bosh kiyimlari turiga – turli ro\_mollar, poyabzal xillariga - mahsi va kavush, ularga qo‘srimcha sifatida esa zargarlik bezaklari kirgan.

Kundalik hayotda ayollar asosan, yoshiga qarab to\_n yoki mursak kiyib, bitta ko\_ylak, lozim hamda boshiga ro\_mol o\_ragan. Bayram va marosimlarda esa odatda, qimmatbaho matolardan tikilgan liboslar kiyilgan. Uydan tashqariga chiqqach, ayol unga begona erkak ko‘zları tushmasligi maqsadida paranji yopingan.

Yillar o‘tib, ko‘ylak ko\_krak qismi va etagining kengligi bir xil ko\_rinish oladi. Ko\_ylaklarga zeb berish maqsadida, yoqa qismiga kashta yoki bir rangli jiyak hamda tasma tikilgan. Odatda, popuk shokilali jiyak yosh qiz va juvonlar ko‘ylaklariga tikilsa, yoshi ulug‘ ayollarning ko‘ylaklariga tasma bilan bezak berilgan.

Ayollar ko\_ylagining bel qismidagi popukka qubbacha shaklidagi kumush bezak – peshauz osib yurilgan. Peshauz ichiga mo\_ychinak, tishkovlagich, atir shishachasi, kalit kabi buyumlar joylashtirilgan. Ko‘ylak vertikal yoqlarining yuqori qismi bog\_icilar bilan bog‘langan. Qadimiy bichimlar asosida tikilgan ko\_ylaklarga boshqa rangdagi xishtak qo‘llanilgan. Odatda, xishtak rangi ko\_ylak matosi rangidan farq qilgan. Xishtakning ham ramziy ma‘nosi mavjud bo‘lib, u yovuz kuchlardan saqlaydi, deb yuritilgan. Yana bir marosimlardan biri Toshkentda nikoh marosimidan so\_ng kelin qizlik ko\_ylagini albatta, ayollar ko\_ylagiga almashtirish marosimi bo\_lgan. So‘ngra kelin kuyovning uyiga ayollar

ko\_ylagida kelgan. Ammo Farg\_onada ushbu marosimning bajarilishi bir mucha uzoqqa chozilgan. Bu hududda yosh kelin mazkur ko\_ylakni birinchi farzandi tug\_ilishiga qadar kiygan.

Shuningdek, tik yoqa ham bel qismi ulama bo'lgan va yenglari orasiga tikilgan burma yoqali ko\_ylak kabi tatar modasi ta'sirida yuzaga kelgan. XIX asrning 90-yillariga kelib, ulama ko\_krak burmali ko\_ylaklar kiyish rusum bo'ldi. Ushbu bichimdagi ko\_ylak turi barcha ayollarga xush kelib, vaqt o\_tsada, milliy libos sifatida bugungi kunda ham foydalanishlarini ko'rish mumkin. Jumladan, yoshi ulug' ayollar ushbu bichimdagi ko'ylaklarni kiyishadi. Ayollar ko'ylaklari uchun noyob va qimmatbaho matolar sirasidan foydalanilgan. Bular: qalami, xomsurp, dokadek nafis hosa, shoyi, kalgay, atlas, adres, shuningdek, xorij davlatlardan keltirilgan, jumladan Rossiya, Angliya, Fransiya, Hindiston, Turkiya, Xitoydagagi fabrikalarda ishlab chiqarilgan baxmal, shoyi va kimxob matolaridir

Har bir madaniyat o'zga madaniyatlar ta'sirida sayqallanib, rivojlanib, yangi ijtimoiy- tarixiy sharoitlarga moslashib borishi tabiiydir. Lekin, barcha holatda ham milliylik etakchi o'rinda turishi lozim. O'rta Osiyo mintaqasi chor Rossiyasi tomonidan bosib olingach, milliy kiyimlarimiz turlariga yangi kiyimlar sirasi kelib qo'shila boshladi. Chunonchi, kamzul va nimchalar shu davrda paydo bo'lib, unga milliy ruhiyat, milliy an'ana va madaniyatimizning qirralari singdirila boshlandi. Bunday kamzullarni milliy matolarimiz bo'lgan – baxmal, beqasamlardan tikila boshlashi – unda milliylikning ustun darajada namoyon bo'lishini ta'minlab boraverdi. Ayniqsa, kamzulning yoqa qismi va tugmalarining atrofini milliy naqshlar va kashtachilik namunalari bilan sayqallanib bezatilishi – uni milliy kiyimlarimiz safdan mustahkam o'rin olishida muhim omil bo'ldi [4].

XIX asr so'nggi davrida yosh ayollar ro\_moli oq dokadan tayyorlanib, burchaklariga hoshiya bilan bezak berilgan. Bunday ro'mollar tikilish usuliga ko'ra boshqa ro'mollardan farq qilgan. Jumladan, iroqi duro\_ya, yurma zanjir kashtasi va sanama iroqi usullari ro'mollarni tikishda qo'llanilgan usullardan hisoblanadi. Ushbu ro\_mollar turidan ayollar 2–3 farzandli bo'lgunga qadar foydalanishgan, keyin esa kashtasiz oq ro\_mol o'ralgan.

Shuningdek, XIX asrda 2–3 farzandli ayollar sochpopukli kulyuta bosh kiyimidan foydalanishgan. Kulyutalar asosan, yorqin gulli kichik aylana shaklida bo\_lib, soch uchun boshning orqa tomondan biriktiri-ladigan maxsus xaltachasi ham bo\_lgan. Yosh ayollar bir vaqt-ning o\_zida ikkita ro\_mol o\_rashi mumkin bo'lgan. Katta ro\_mollar burchakma-burchak taxlanib, o'ralmasdan boshga tashlangan, ro'mol ikki burchagi esa ko\_krak qismida osilib turgan. Uning ustidan esa kichik rangli ro\_mol – durra bog\_langan. Ayollar peshonasida durradan foydalanish go\_yo dabdaba va bashanglikni bergan. Yoshi ulug' ayollar bir vaqtning o'zida uchta ro'moldan foydalanishgan, birinchi ro\_molning burchaklarini esa belga tashlab yurishgan. Uning ustidan peshona qismiga kichik ro\_mol bog\_langan. Ikkinci ro\_molning ustidan esa dakana yoki loki sallasi o\_ralgan. Toshkent-lik keksa ayollarning sallasi erkaklar sallasidan farq qilgan. Ro'molning oxirgi qismi – pech belgacha osilib turgan yoki sulla o\_ramiga qistirib qo\_yilgan.



### 3- rasm. Ayollar do'ppilar. Qo'qon. XX asr boshi. Qo'qon shahar O'lkashunoslik muzeyi.

Do'ppilar erkak, ayol, o'g'il va qiz bolalar uchun alohida usul va shakllarda tikilgan. Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot natijasida oltin va kumushlar insonning moddiy darajasini belgilovchi omil sifatida shuhrat topgach, o'z moddiy darajasini ko'rsatish hamda irim- sirimlarga qarshi vosita sifatida bosh kiyimlarga ham tikila boshlangan. —Do'ppidagi kumush bezaklar inson ruhiyatini toza saqlashga, uni yomon ko'zlardan asrab, yovuz ruhlarni haydashga xizmat qiladi, degan tasavvurlar hukmron bo'lsa, oltin esa quyosh nurlaridek tovlanib, yorug'likning, abadiylikning nishonasi sifatida tushunilgan. Ushbu jihat va an'analarning evolyutsion taraqqiyoti kumush va oltin rangli zardo'zlik iplarining paydo bo'lib, naqshlarda keng qo'llanilishiga olib keldi. Naqshlardagi zardo'zlik usullari, ayniqsa, yigirmanchi asrda o'zining rivojlanish bosqichiga etdi Qiz va juvonlar do'ppilariga badiiy- estetik belgi sifatida rangli ipaklardan foydalanilgan holda turli naqshlar solib tikilgan bo'lsa, erkaklar do'ppilarida bunday xususiyatlар kamroq bo'lgan. Yosh bolalar do'ppilariga turli bezaklar, taqinchoqlar, shuningdek jig'a sifatida qush parlari ham qo'shib tikilgan. Bunda estetik did bilan birgalikda ota-onaning bolasida ko'rishni istagan orzu-umidlari ham mujassam bo'lgan. Ayniqsa, chorvador elatlar farzandlariga atalgan do'ppilarga tovus, boyo'g'li va ukki patlarini tikishi yosh bolalarga estetik go'zallik baxsh etishi bilan bir qatorda, o'g'il bolalar bosh kiyimidagi parlar ilgari hukmdorlar tomonidan taqilib yuradigan jig'alarga ishora bo'lib, orzu-umidlар ifodасидир. Hatto, ayrim hududlarda, ayniqsa Xorazm, Jizzax, Samarqand, Surxondaryo vohalarida ilgari yosh bolalarning do'ppilariga qushlar tirmog'ining qadab qo'yilishi, shuningdek respublikamizning barcha hudud aholisi yosh bolalari bosh kiyimida va boshqa kiyimlarida uchraydigan ko'zmunchoqlar yomon ko'zlar va yovuz ruhlar e'tiborini chalg'itish uchun qilingan ehtiyyot chorasi hisoblangan

Etnoijtimoiy-madaniy taraqqiyot va kiyimlarning evolyutsiyasi hamda yangi jamiyatlarga transformatsiyalashuvi shuni ko'rsatmoqdaki, do'ppilar yigirmanchi asrning birinchi yarmiga qadar, lokal mohiyat kasb etgan. Har bir urug' yoki muayyan hudud aholisi do'ppilarida o'ziga xoslik jihatlari ko'proq namoyon bo'lgan. Toshkent do'ppilar, vodiy do'ppilar, Samarqand, Shahrisabz, Boysun do'ppilar rangi, naqshlari, tikilish usuli, shakli va boshqa jihatlari bilan bir -biridan farqlangan. Do'ppilar tikilishining qadimiyligi va har bir geografik hududda o'ziga xos shaklga egaligi bilan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida ishlab chiqarilgan hudud nomi bilan mashhur bo'lgan. Chunonchi, —Chust do'ppi, —Andijon do'ppisi, —Qo'qon do'ppisi va hokazo.

Bugungi kunda mutaxassislarining e'tirof etishicha, do'ppilar shakli, naqshlanishi va o'ziga xos xususiyatlari bilan olti turga bo'linib, bu mintaqaviy jihatlar asosida

xarakterlanadi. Bular: Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Qashqadaryo-Surxondaryo do‘ppilaridir. Yigirmanchi asr ibtidosidan boshlab, mintaqamiz xalqlari orasida tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi natijasida ixcham va chirolyi do‘ppilar turli bozorlarda sotilib, turfa hudud aholisi orasida o‘z xaridorlarini topa boshladи.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Kamilova X.X., Rahimova Z.I. O‘zbek an‘anaviy kiyimalari. II tomli kitob-al‘bom.  
Toshkent, 2016.
2. Nishonova O. O‘zbek ayollarining etnik madaniyati va odatlari. – Toshkent, 2005. – 4
- 4 b. 3. Raxmatullayeva U.S. O‘zbek xalqining kiyinish madaniyati: an‘anaviylik va 4.Zamonaviylik (falsafiy-madaniy yondashuv).nom.dis.Toshkent, 2010 y.  
Sodiqova N. O‘zbek milliy kiyimlari: XIX-XX asrlar. – Toshkent: Sharq, 2003. – 160.
- b 5.Sodiqova N. «O‘zbek milliy kiyimlari XIX-XX asrlar». T: 2001.